

Plastilin tovu



Bugun darsda siz Yer yuzidagi eng go'zal qushlardan biri – **tovusni** yasaysiz. Tovus o'zining yorqin patlari va yelpig'ich kabi ochiladigan katta dumi bilan juda mashhur.



Plastilin bilan ishlash jarayonida siz aniq va tartibli harakat qilishni, shuningdek, kichik detallarga ham e'tibor qaratishni o'rganasiz. Yumshoq material va o'z mahoratingizdan foydalanib, qushning **shakli, ko'rinishi** va **rangini** aks ettirishingiz kerak bo'ladi.



Plastilindan go'zal dumli **tovus** yasang.

Sizga kerak bo'ladi:



- g'ovaksimon plastilin;
- plastilin bilan ishlash uchun taxtacha;
- karton.
- qalam va flomasterlar.

Ish rejasi:

1. Tovusning ko'rinishini o'rganib, unga mos keladigan **plastilin ranglarini** tanlang.
2. **Tovusning yorqin va rang-barang dumini** yasashni varaqning pastki chetidan boshlang. Bunda tayyor qatlam ustidan yangisini qo'yib borasiz. Buning uchun plastilindan kichik sharcha yasaysiz, uni qog'ozga qo'yib, barmog'ingiz bilan biroz bosgan holda sekin tortasiz va tomchi shakliga keltirasiz.
3. Xuddi shu usulda **tovusning tanasini** ham yasang.
4. Bunga **boshi, bo'yini** va **tumshug'ini** qo'shing. Qolgan detallarni chizib tugallang.



Rang-barang to'vus



1



2



3



4



5



6

